



MAMLAKATIMIZNING IQTISODIY TRANSFORMATSIYASIDA ISLOM MOLİYASINING O'RNI

Xabibullayev Dadajon Ro'ziboyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Moliya kafedrasi assistenti

d.xabibullayev@tsue.uz

0009-0003-0507-4340 ORCID

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8170639>

ARTICLE INFO

Received: 14th July 2023

Accepted: 20th July 2023

Online: 21th July 2023

KEY WORDS

Iqtisodiy transformatsiya, islomiy moliya, moliyaviy inklyuziya, islomiy moliya maxsulotlari.

ABSTRACT

Maqolada Iqtisodiy transformatsiya jarayonida islom moliyasining iqtisodiy o'zgarishlarga ta'siri o'rganilgan. Shu bilan birgalikda islomiy moliyaning zamonaviy iqtisodiyot tuzilmasi, tizimlari va faoliyatidagi sezilarli va keng qamrovli o'zgarishlarga olib kelishi, bu esa mahsulot ishlab chiqarish, raqobatbardoshlik va umumiy iqtisodiy farovonlikning barqaror yaxshilanishiga sabab bo'luvchi asosiy omillardan biri sifatida muallif tomonidan o'z munosabati bildirilgan. Ushbu munosabatlarga mamlakatlar va yillar kesimida bayon etilgan statistik ma'lumotlar asosida muallif o'z fikirlarini yanada mustaxkamlagan.

Tadqiqot natijasiga ko'ra yurtimiz iqtisodiyoti uchun muhim hisoblangan takliflar keltirilgan.

Maqolada moliyaviy inklyuziya, axloqiy investitsiyalar, xatarlarni taqsimlash va hamkorlik, xamda islom kapital bozorlari va ulardan foydalanish samaralariga urg'u berilgan.

Kirish.

Iqtisodiy transformatsiya, odatda iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichiga o'tishi, moliyaviy instrumentlar va strukturani yangilash bilan bog'liq bo'lib, iqtisodiyotning yangi imkoniyatlardan foydalanish imkonini beradi. Bu o'zgarishlar, tadbirkorlik faoliyati, korporativ boshqaruv, innovatsiyalar, moliyaviy inklyuziya, turli sektorlararo munosabatlar va yangi moliyaviy mexanizmlar, xamda globalizatsiyani o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy transformatsiya jarayoni, sodda tartibda davlatlar, korporatsiyalar yoki tashkilotlar tomonidan boshqariladi hamda uning samaradorligi va o'sish sur'atlarini barqarorligi doimiy yaxshilanib boradi. Uning maqsadi odatda iqtisodiyot rivojlanishining tezligini oshirish, iqtisodiy bozorlarda yagona rivojlanishni ta'minlash va iqtisodiy rivojlanish uchun qulay sharoitlar yaratishdir.

Shu nuqtai nazardan aytadigan bo'lsak Iqtisodiyotning bugungi zamonaviy qiyofasida dunyo mamlakatlarida shiddat bilan rivojlanib borayotgan va xalqaro moliya maydonida o'z o'rnini yanada mustaxkamlab borayotgan Islom moliya tizimiga bo'lgan qiziqish tobora o'sib



bormoqda. Bugungi kunda an'anaviy moliya mexanizimiga raqobatchi o'laroq, yangi islomiy moliyaviy mexanizmlar xususan islomiy banklar, islomiy sug'urta tashkilotlari, investitsiya jamg'armalari va boshqa islomiy moliyaviy vositachilar tashkil qilinib, nafaqat musulmon diyorlarda balki nomusulmon bo'lgan o'lkalarda xam keng rivojlanib borayotgani bir muncha axamiyatga molik jixatlardandir.

Adabiyotlar sharhi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotini, xususan, jahon iqtisodiy transformatsiya jarayonini kuzatar ekanmiz, islom huquqi qoidalariga asoslangan moliyaviy munosabatlarni ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Islom iqtisodiyoti va moliyasi asoslari nafaqat musulmon mamlakatlardagi balki G'arbdagi ko'plab iqtisodiy va moliyaviy institutlarda, ta'lim muassasalarida olimlar tomonidan o'rganilib, tadqiqot obyektining ajralmas qismiga aylandi.

So'nggi yillarda aytish joizki islom moliyasining kengayib borayotgan nufuzi turli kasb egalarning, jumladan, ekspertlar, moliyachilar, tadqiqotchilar va universitet professorlarining qiziqishi va faolligini oshirdi. Bu o'sib borayotgan soha islom iqtisodini va islom moliya tizimining asosini tashkil etuvchi tamoyillarni yaxshi tushunadigan shaxslarga talabni yaratdi.

Mutaxassislar va amaliyotchilar islom ta'limotlaridan kelib chiqadigan tamoyillar va qadriyatlarni o'rganishni o'z ichiga olgan islom iqtisodiyotining asosiy tushunchalari bilan tanishishga intilmoqda. Ular iqtisodiy faoliyat doirasida adolat, tenglik, axloqiy xulq-atvor va ijtimoiy mas'uliyat kabi mavzularni o'rganadilar. Bu bilim islomiy moliya bilan shug'ullanish va islom tamoyillariga muvofiq biznes yuritish uchun zarur hisoblanadi.

Ayniqsa, moliyachilar o'sish potentsialini va islom moliyasi taqdim etayotgan imkoniyatlarni tan olganliklari uchun bu sohaga jalb qilinadi. Ular islomiy bank ishi, islom sug'urtasi (Takoful) va islom kapital bozorlari kabi islomiy moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni tartibga soluvchi tamoyillar haqida keng qamrovli tushunchaga ega bo'lishga intiladi. Bu bilim ularga shariatga mos moliyaviy yechimlarni taqdim etish va axloqiy va foizsiz muqobillarni qidirayotgan mijozlarning o'sib borayotgan segmenti talablarini qondirish imkonini beradi.

Shu nuqtaiy nazardan islom iqtisodiyoti tamoyillari asosida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish va samarali boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini xorijlik yirik iqtisodchi olimlar (Mufti Muxammad Taqiy Usmoniy 1998, R.I.Bekkin 2010, Kabir Xasan va Mervin Lyuisn 2011, Hans Visser 2019, Brayann Kettel 2008) tomonidan tadqiqot olib borilgan.

Shuningdek, (Hadia, va boshq. 2022) kabilar tomonidan yozilgan ilmiy maqolalar, (Taner SEKMEN. 2020) kabi olimlarning tadqiqot ishlaridan keng ko'lamda foydalanildi. Shu bilan birgalikda aytish mumkinki MDX mamlakatlarining ba'zi olimlarida (Trofimova 2009, Andropov 2017, Mokina 2017) kabi olimlarning bir qancha ilmiy risolalarida islom iqtisodiyoti va moliyasi bo'yicha olib brogan izlanishlari birmuncha axamiyatga molik. Shu o'rinda qayd etish joizki, o'zbek olim va izlanuvchilardan (Xasanov 2017, Imamnazarov 2023, Abrorov 2020, Tursunov 2021, Zayniddinovlar 2022) islom moliyasining bugungi kundagi eng muxim nuqtalarda nechog'lik zarur ekanligi xususida ilmiy izlanishlar olib borishgan. Qayd etilgan olim va izlanuvchilar Iqtisodiy transformatsiya jarayonlarida islom moliyasining nazariy asoslari, islom bankchiligi tashkil etish masalalari, sukuk islomiy qimmatli qog'ozi amaliyotini joriy qilish, islomiy moliyalashtirish instrumentlari asosida mavjud investitsion



paket jozibadorligini yanada oshirishga oid izlanishlarda O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirishga oid xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, empirik, tasviriy statistika, ekspert baholash, guruhlashtirish, induktsiya va deduktsiya metodlari, dinamik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Iqtisodiy transformatsiya- iqtisodiyotda amalga oshirilgan muhim o'zgarishlar va islohotlar bilan tavsiflangan keng qamrovli jarayonni o'z ichiga oladi. Uning asosiy maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, samaradorlikni oshirish va umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilashdir. Ushbu transformatsion jarayon tarkibiy o'zgarishlar, siyosiy islohotlar va institutsional o'zgarishlarni o'z ichiga olgan keng ko'lamli chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu chora-tadbirlar bir iqtisodiy tizimdan ikkinchisiga o'tishni osonlashtirish, iqtisodiyotni yangi imkoniyatlarga moslashish, qiyinchiliklarni yengish va paydo bo'layotgan tendentsiyalardan foydalanish imkonini berish uchun mo'ljallangan.

2022 yil 3-noyabr Samarqandda o'tkazilgan O'zbekistonning ikkinchi iqtisodiy forumida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tadbir ishtirokchilariga yo'llagan murojaatnomasida "Mamlakatimizda 2022–2026 yillarda inklyuziv va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, inson kapitalini rivojlantirish va kambag'allikni kamida 2 barobarga qisqartirishni maqsad qilganmiz"¹ deya O'zbekistonning iqtisodiyotida amalga oshirilgan muhim o'zgarishlar haqida ta'kidlagan.

Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki Iqtisodiyotimizni transformatsiyalash jarayoni iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish kabi turli tarmoqlarini rivojlanayotgan bozor talablari va texnologik yutuqlarga moslashtirish uchun qayta qurishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, u tadbirkorlik faoliyati, savdo va investitsiyalar uchun qulay muhit yaratuvchi siyosat islohotlarini joriy etishni nazarda tutadi. Ushbu islohotlar oshkoralik, hisobdorlik va samaradorlikni rag'batlantiradigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, soliqqa tortish va boshqaruv tizimlaridagi o'zgarishlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Ushbu sanab o'tilgan murakkab iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish uchun mamlakatimizda hukumat ko'rishi mumkin bo'lgan bir nechta chora-tadbirlar mavjud. Bunga misol tariqasida iqtisodiy transformatsiyani to'liq o'zlashtirishga va uning yo'nalishlarini aniq ta'minlashga yordam bera oladigan islomiy moliya tizmini ko'rsatishimiz mumkin.

Iqtisodiy o'zgarishlar nuqtai nazaridan islomiy moliya inklyuziv iqtisodiy o'sish va rivojlanishni rag'batlantirishda rol o'ynashi mumkin.

Islomiy moliya deganda islom huquqi tamoyillariga muvofiq ishlaydigan moliyaviy tizim tushuniladi. U islom axloqi va tamoyillariga mos keladigan turli moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni o'z ichiga oladi. Islomiy moliyaning asosiy maqsadlari moliyaviy operatsiyalarda iqtisodiy adolat va axloqiy xulq-atvorni targ'ib qilishdir.

Islomiy moliyaning asosiy tamoyillaridan biri bu Ssuda foizi yoki riboning ta'qiqlanishidir, ya'ni qarz beruvchilar kreditlar uchun foiz ololmaydilar yoki pulni aktiv sifatida qarzga berib unga foyda tariqasida ustama belgilay olmaydilar. Buning o'rniga, islomiy moliya foydani taqsimlash, risklarni taqsimlash va aktivlarga asoslangan

¹ <https://president.uz/oz/lists/view/5662>



operatsiyalarni targ'ib qiladi. Bu boylikning yanada adolatli taqsimlanishiga yordam beradi va samarali iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiradi.

Islomiy moliya shuningdek, alkogol, qimor, cho'chqa go'shti, hamda qurol-yarog' bilan bog'liq sohalar kabi axloqsiz yoki harom deb hisoblangan sohalarga sarmoya kiritishni ham taqiqlaydi. Bu ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalarni rag'batlantiradi va butun jamiyat uchun foydali bo'lgan iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiradi.

Quida biz an'anaviy iqtisodiyot va islom iqtisodiyoti o'rtasidagi ba'zi jixatlarni, yutuq va kamchiliklarini taqqoslab o'tamiz.

1-jadval

An'anaviy iqtisodiyot va islom iqtisodining asosiy ba'zi jihatlarini yorituvchi jadval

Aspekt	An'anaviy Iqtisodiyot	Islom iqtisodiyoti
Fondlar	Dunyoviy tamoyillar va bozorga yo'naltirilgan yondashuv	Islom ta'limotidan olingan tamoyillar
Davlatning roli	Cheklangan aralashuv, bozorga asoslangan iqtisodiyot	Davlat iqtisodiy ishlarda faol rol o'ynaydi
Egalik	Xususiy mulk va mulkchilik huquqiga e'tibor	Xususiy va davlat mulkiga e'tibor
Foiz (riba)	Odatda ruxsat etiladi va kreditlashning asosini tashkil qiladi	Taqiqlangan, chunki u ekspluatatsiya deb hisoblanadi
Foyda keltiradigan faoliyat	Iqtisodiy faoliyatning keng doirasiga ruxsat berilgan	Taqiqlangan faoliyatlarga qimor va spirtli ichimliklar va boshqalari
Boylik taqsimoti	Samaradorlik va o'sishga e'tibor beradi	Boylikni adolatli taqsimlashga e'tibor berish
Iqtisodiy adolat	Samaradorlik va bozor natijalariga ustuvor ahamiyat beradi	Ijtimoiy adolat va jamiyat farovonligiga e'tibor qaratadi
Etika va axloq	Ko'p jihatdan neytral qiymat	Axloqiy xulq-atvor va qadryatlarga urg'u beradi
Moliyaviy vositalar	An'anaviy moliyaviy mahsulotlarning xilma-xilligi	Shariatga muvofiq moliyaviy vositalardan foydalaniladi
Pul-kredit siyosati	Markaziy bankning pul massasi va stavkalari ustidan nazorati	Pul-kredit siyosatida islom tamoyillariga amal qilish

An'anaviy iqtisodiyot va Islom iqtisodiyoti orasidagi farqli jixatlarga turli olimlar va amaliyotchilar bir necha talqin va yondashuvlaridan kelib chiqib o'z qarashlarini bayon etib kelishmoqda.

Xususan Islom moliyasi bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarini inkor etmaydi. Hatto faqat foyda ko'rish istagi xam ma'lum miqdorgacha joiz xisoblanadi. Shu bilan birgalikda, xususiy mulkchilikka ham to'laqonli qarshilik bildirmaydi.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan An'anaviy iqtisodiyot va islom iqtisodiyotining Potentsial farqlariga ba'zi izoxlar:



Davlatning roli: Islom iqtisodiyoti odatda davlatning faol rolini qo'llab-quvvatlashda, davlat aralashuvi va bozor qonuniyatlatiri va hukumat nazorati o'rtasidagi muvozanat haqida munozaralar bo'lishi mumkin.

Ssuda foizi (Ribo): Foizni ta'qiqlash islom iqtisodida umumiy tamoyil bo'lib, lekin uni qo'llash bo'yicha turli talqinlar bo'lishi mumkin. Ba'zi olimlar foizlarni to'liq taqiqlash tarafdori bo'lishsa, boshqalari foydani taqsimlashning muayyan shakllariga yoki muqobil moliyalashtirish usullariga ruxsat berishi mumkin deb qarashadi.

Boylik taqsimoti: Boylikni adolatli taqsimlash umumiy maqsad bo'lsa-da, unga erishishning o'ziga xos mexanizmlari bo'yicha turli nuqtai nazarlar mavjud bo'lishi mumkin. Ba'zilar zakot (xayriya qilish) va ixtiyoriy ravishda qayta taqsimlash muhimligini ta'kidlash, boshqalari boylikni qayta taqsimlash bo'yicha yanada keng qamrovli siyosatni ilgari surishi mumkin.

Moliyaviy vositalar: Shariat qonunlariga ko'ra joiz deb hisoblangan moliyaviy vositalar turlarida farqlar bo'lishi mumkin. Olimlar islom obligatsiyalari (sukuk) yoki islom sug'urtasi (takaful) kabi muayyan moliyaviy mahsulotlar bo'yicha o'z fikrlarida turlicha e'tirof etishgan.

Shuni tan olish kerakki, bir necha yillar muqaddam islom iqtisodiyoti doimiy baxs va munozaralarga sabab bo'lib keldi. Xozirgi kunga qadar islom iqtisodiyotining umumiy tamoyillari, faoliyat mexanizmlari aniq shakillanmadi. Yani shariatga muvofiq keluvchi amaliyot qoidalarini qarashlar tizimi sifatida shakillantirgan g'oyaviylik mavjud, lekin ushbu mexanizmni yaxlit iqtisodiyot miqyosida qo'llash to'g'risida aniq tasavvur yo'q edi. Boshqacha aytganda, tizimning unsurlari qanday faoliyat ko'rsatayotganini xis etish mavjud, lekin mana shunday tizim qanday ishlashi to'g'risida tushuncha mavjud emasdi. Muammo shundaki, islom iqtisodiyotining rivojlanish amaliyoti aksariyat iqtisodiy dolzarb muammolarni nazariy jihatdan tushunib yetishlikdan ilgarilab ketgan edi. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda Islom tamoillariga asoslangan moliyaviy, ijtimoiy va iqtisodiy tizimni shakillantirish yoki ko'rib chiqishga jalb etilgan tadqiqotchilar mazkur va boshqa ko'plab masalalarni tadqiq etishmoqda. Turli talqin va yondashuvlar fanning boyligi va evolyutsiyasiga juda katta hissa qo'shib kelmoqda.


Moliyalashtirishning islomiy asoslariga qaytadigan bo'lsak, bu tizimni avvaliga axolisini katta qismini musulmonlar tashkil etuvchi mamlakatlar joriy etgan bo'lsa, xozirda shuni qayd etish lozimki islomiy moliya tizimi muqobil moliya tizim sifatida dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlar xududlarini zabt etib kelmoqda. Bu esa uning nechog'lik samarali tizim ekanligidan dalolat o'laroq belgi bermoqda.

"Thomson Reuters" agentligi tomonidan nashir etilgan "Islamic finance development report 2022" ma'lumotlariga ko'ra, jahonda 136 ta mamlakat islom moliyasini to'liq yoki ayrim elementlarini joriy etgan bo'lib, ularning tarkibida ko'p miqdorda musulmon aholi yashovchi mamlakatlardan tashqari Buyuk Britaniya (aholisining 4,4 %ini musulmonlar tashkil etadi), AQSH (0,9 %), Singapur (15,6 %), Shveytsariya (5,2 %), Kanada (3,2 %), Avstraliya (3,2 %), Fransiya (4 %), Germaniya (3,5 %) va Rossiya (15 %) singari mamlakatlarda ham islom moliyasi vositalaridan foydalanilmoqda.

Islom moliyasi aktivlarining mamlakatlar kesimidagi taqsimotiga ko'ra, 2021-yilda Eron 1,2 trln. AQSH dollarini tashkil etgan. Bu jami aktivlarning 31,2%iga mos keladi(1-rasm).

Mazkur ko'rsatkichlar Saudiya Arabistonida mos ravishda 896 mlrd. AQSh dollari (22,6 %), Malayziyada 650 mlrd. AQSh dollari (16,4 %) va BAAda 252 mlrd. AQSh dollari (6,4 %)ni tashkil etgan.

Islom moliyasi yillar davomida rivojlanib, kengroq mahsulot va xizmatlarni taqdim etib kelmoqda. Dastlab islom bank ishi, birinchi navbatda, oddiy depozit va moliyalashtirish mahsulotlariga e'tibor qaratdi, biroq, u islom obligatsiyalari, islom investitsiya fondlari, takaful (islom sug'urtasi) va boshqa islomiy moliya fondlari kabi yanada murakkab islomiy instrumentlarni taklif eta boshladi. Islom moliyasi taklif etayotgan mahsulot diversifikatsiyasi ko'proq mijozlar bazasini jalb qildi va islom moliyasining o'sishiga hissa qo'shdi.




1-rasm. Islom moliyaviy aktivlarning ba'zi mamlakatlar kesimidagi ko'rsatkichlari (2021-yil, mlrd. AQSH dollari) (IFDI, 2022)

Yuqorida aytib o'tganimizdek, islomiy moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda, xususan dunyo bo'ylab bir qancha islom banklarining moliyaviy ko'rsatkichlari yaxshilanayotganligini xam ko'rishimiz mumkin.

Islom banklari faol ravishda innovatsiyalar kiritmoqda va o'z takliflarini diversifikatsiya qilmoqda. Bu ularga mijozlarning kengroq ehtiyojlari va afzalliklarini qondirish imkonini beradi. Yangi mahsulot va xizmatlarni joriy etish orqali islom banklari qo'shimcha daromad manbalarini yaratib kelmoqda va moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilab bormoqda.

Islom banklari shariatga mos mahsulot va xizmatlarni taklif qilib, bu talabni qondirish uchun turli islomiy instrumentlardan foydalanmoqda. Bu esa Islom moliyaviy xizmatlariga bozor talabining ortishini va o'z navbatida islom banklarining aktivlarini o'sib borishini ta'minlamoqda. (2-rasm)



1-rasm. Islom banklari aktivlarining o'sishi (2015 - 2021, milliard AQSH dollari) (IFDI,2022)

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki Bugungi kunda dunyoda islomiy banklar jami 566 tani tashkil etib ularning aktivlari qiymati 2.8 trln AQSH dollariga teng deb baholanmoqda va 2021 yil oxiriga kelib Islomiy bank aktivlari qiymati 2020-yilga nisbatan 17% ga oshgan.

Xozirda Islom banki sektori o'z faoliyatida sezilarli yaxshilanishlarni namoyish etib kelmoqda, jahon miqyosida islom bank sektorining sof daromadning o'sishi, xususan, 290% ga yetgan. Ushbu o'sishni 2021 yilda kredit yo'qotishlari bo'yicha zaxiralarning o'tgan yilga nisbatan kamayishi bilan bog'lash mumkin. Bundan tashqari, islom banklari yuqori darajadagi mijozlarga xizmat ko'rsatishga e'tibor qaratib, oqilona moliyalashtirish qarorlarini qabul qildilar.

Shuningdek, FinTech kompaniyalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali operatsion samaradorlikka xam erishdi.

Ushbu ijobiy o'zgarishlar islom bank xizmatlariga bo'lgan kuchli talabni aks ettiradi, bu esa rivojlanayotgan tendentsiyalardan dalolat beradi. Bunday tendentsiyalar davom etar ekan, sanoatning taxminiy qiymati 2026 yilga kelib 4,0 trillion AQSh dollariga yetishi kutilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Mamlakatlarda ichki talabni hisobga olgan holda islomiy moliya vositalarining joriy etilishi qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun katalizator bo'lib xizmat qilmoqda. Bu vositalarning keng tarqalganligi, ayniqsa, musulmonlar soni ko'p bo'lgan mamlakatlarda e'tiborga loyiqdir, chunki ular o'z fuqarolarining moliyaviy ehtiyojlari va afzalliklarini qondiradi. Ammo shuni tan olish juda muhimki, bu vositalarning ta'sirchanligi musulmonlar ko'p bo'lgan davlatlardan tashqari, hatto musulmon aholisi kamroq bo'lgan davlatlarda ham kuzatilmoqda. Islomiy moliyaga xos bo'lgan tamoyillar va axloqiy asoslar kengroq auditoriyani o'ziga jalb qilib kelmoqda, diniy chegaralarni chetlab



o'tib, barqarorlik, inklyuzivlikni ta'minlaydigan muqobil moliyaviy yechimlarni taklif qilmoqda. va barqaror iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashmoqda.

Iqtisodiy transformatsiya jarayonida islomiy moliyaviy vositalarni qo'llash orqali mamlakatlar sarmoyadorlarning xilma-xilligidan foydalanishi, mahalliy tadbirkorlikni kuchaytirishi va o'z iqtisodiyotlarining umumiy farovonligiga hissa qo'shishi mumkin.

Islomiy moliyaviy vositalar jahon miqyosida e'tirof etilgan va dunyoning turli mamlakatlarida samarali qo'llanilmoqda. Mamlakatimizda xam ushbu vositalarga talab katta ekanligiga ishonchimiz komil. Biroq, bu talabning aniq hajmini aniqlash uchun keng qamrovli tadqiqot va tahlillarni o'tkazish kerak. Keng qamrovli tadqiqotlar o'tkazish orqali siyosatchilar va manfaatdor tomonlar O'zbekistonda islomiy moliyaviy vositalarga talab darajasi to'g'risida aniq ma'lumotlarni olishlari mumkin, bu ularga asoslangan qarorlar qabul qilish va bozor ehtiyojlarini qondirish uchun tegishli strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

References:

1. IFDI (2022) Islamic Finance Development Report 2022: Embracing change. The Islamic Corporation for the Development of the Private Sector and Refinitiv. p 30
2. Islamic Financial Services Industry (IFSI) Stability Report (2022)
3. Usmani Muhammad Taqi - 1998: Title: "An Introduction to Islamic Finance"
4. Usmani Muhammad Taqi - 2002: Title: "Islamic Banking and Finance: Fundamentals and Contemporary Issues"
5. Hans Visser - 2019: Title: "Islamic Finance and Economic Development: A Comparative Analysis of Islamic and Conventional Banking Systems in the Middle East"
6. Brayan Kettel - 2019: Title: "Behavioral Finance and Muslim Investors: An Empirical Study of Cognitive Biases in Islamic Stock Markets"
7. Аброров, С. (2021) Ислом молияси: Ўзбекистон учун янги имкониятлар. Экономика и образование, (4),
8. Аброров С.З. (2020), Ўзбекистонда сукук –исломий қимматли қоғозларни жорий этиш истиқболлари. 08.00.07-Молия, пул муомиласи ва кредит PhD илмий даражаси диссертацияси /ТДИУ Т;
9. J.M. Imamnazarov: Islom moliya tizimi imkoniyatlaridan O'zbekiston iqtisodiyotida foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. -T.: TDIU, 2023